

**THE WAYS OF THE EFFECTIVE USAGE OF INNOVATIVE  
FUNCTIONS IN ENTERPRISES**

**СПОСОБЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ**

**ИННОВАЦИОННЫХ ФУНКЦИЙ НА ПРЕДПРИЯТИИ**

**KORXONALARDA INNOVATSION FUNKSIYALARIDAN**

**SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI**

**Hilola Yodgorova Isroilovna**

**Senior lecturer, Jizzakh Polytechnic Institute**

**Хилола Ёдгорова Исройловна**

**Старший преподаватель, Джизакский политехнический институт**

**Hilola Yodgorova Isroilovna**

**Jizzax shahar Jizzax politexnika instituti katta o'qituvchisi**

***Annotation:** Manufacturing enterprises have always played an important role in the country's economy. In particular, it is safe to say that the innovative development of these organizations and the application of innovative strategies can lead to economic prosperity. This article discusses the importance of effective use of innovative functions in manufacturing enterprises and ways to do it.*

***Аннотация:** Производственные предприятия всегда играли важную роль в экономике страны. В частности, можно с уверенностью сказать, что инновационное развитие этих организаций и применение инновационных стратегий может привести к экономическому процветанию. В статье обсуждается важность эффективного использования инновационных функций на производственных предприятиях и способы этого.*

***Annotatsiya:** Mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish korxonalari har doim muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, mazkur tashkilotlarning innovatsion rivojlantirilishi va innovatsion strategiyalarning qo'llanilishi iqtisodiyotning gullab yashnashiga sabab bo'la oladi desak adashmagan bo'lamic. Mazkur maqolada ishlab chiqarish korxonalarda innovatsion funksiyalaridan samarali foydalanishning ahamiyati hamda uning yo'llari xususida bayon etiladi.*

**Ключевые слова:** производственные предприятия, инновационное развитие, инновационные стратегии.

**Keywords:** manufacturing enterprises, innovative development, innovative strategies.

**Kalit so'zlar:** ishlab chiqarish korxonalari, innovatsion rivojlantirish, innovatsion strategiyalar.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida korxonalarning innovatsion faoliyatini yanada kuchaytirishni va innovatsion menejment funksiyalaridan

yanada samarali foydalanishni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida korxonaning innovatsion strategiyasini ishlab chiqishni talab qiladi. Korxonaning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish va tadbiqu etish jarayoni o'zida bajarilishi lozim bo'lgan loyihalarning barchasini birlashgan va tizimlashtirilgan, tegishli dastur bilan ta'minlangan bo'lsa samarali hisoblanadi. Shuning uchun ushbu strategik dasturlarning shakllanishi va bajarilishida qo'llanuvchi eng muhim va asosiy usullar bo'lib prognozlashtirish va analitik usullar hisoblanadi. Bu usullar shuningdek, alternativ loyihalarni yoki muayyan bir loyihaning variantlarini tanlab olish zarurati tug'ilganda, alohida innovatsion loyihalarni tayyorlash jarayonida qo'llanishi mumkin.

Prognozli-analitik usullar yordamida quyidagilar bajarilishi mumkin:

- 1) korxona tashqi muhitining o'zgarishi va rivojlanishini oldindan aytish;
- 2) innovatsion sohada korxonalarga sezilarli darajada ta'sir eta oladigan tashqi va ichki omil va shartlarni aniqlash;
- 3) tegishli dastur va rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish;
- 4) tanlab olinadigan strategiyalardan vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibat va natijalarni baholash.

Ko'rib chiqilgan usullar, odatda, majmuali innovatsion dasturlarni ishlab chiqishda foydalaniladi. Bevosita dasturni tuzishga kirishishdan oldin, bir qator nazariy masalalar ustida ishlash kerak. Innovatsion strategyaning yo'nalishidan kelib chiqqan holda, dasturning perspektiv maqsadlari aniqlanadi. Bu maqsadlar ob'ektning innovatsion rivojlanishning muammolarini echishni ko'zlaydi. Muammolarni echishning asosiy bosqichlarini belgilab olish va shu asosda mavjud resurs va mablag'larni taksimlash kerak. Shunday qilib, kompleksli innovatsion dastur ishlab chiqishning birinchi navbatdagi masalasi maqsadlarni shakllantirishdan iborat. Keyinchalik dasturning faoliyat sohasi aniqlanadi. Mavjud amaliyot shuni ko'rsatadiki, hozirda amalda qo'llanuvchi ko'pgina dasturlarda ishlab chiqarishga yangi innovatsiyalarni kiritish bilan cheklanib, deyarli yangi texnikaning ekspluatatsion davriga e'tibor qaratilmaydi. Shunday qilib, yangilik kiritishdan kutiladigan samara deyarli bo'lmaydi. Shuning uchun dasturlar innovatsion siklning barcha bosqichlarini o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, dasturning muddatini aniqlashtirish kerak. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kompleksli innovatsion dastur uchun optimal muddat, yechilayotgan masalalar ko'lamiga bog'liq holda, ikki yildan besh yilgacha bo'lishi mumkin. Shuning bilan birga, shu masalalarni yechish ustidan nazorat qilish imkoniyatini yaratish uchun, yechimning asosiy bosqichlarini belgilab olish va alohida loyihalarning bajarilishi oraliq muddatlarini aniq

ko'rsatish kerak. Bu o'z navbatida, olib borilayotgan ishlab chiqarish va izlanishlarni o'z vaqtida baholash va so'nggi natijalarga ta'sir eta oladigan to'xtatishlarni to'g'rilashga imkon beradi.

Korxona rivojlanishining kompleksli (majmuaviy) innovatsion dasturini shakllantirishning keyingi muammosi bu kerakli resurslar bazasini yaratish bilan bog'liq. Tajriba shuni ko'rsatadiki, resurslarga bo'lган ehtiyoj dasturning o'zida aks ettirilishi kerak, buning uchun loyiҳalar uchun resurslar bilan ta'minlanganlik bo'yicha alohida bo'limni ishlab chiqish lozim. Bu resurslar bazasi va uning ichki tuzilishi to'g'risida ma'lumotlarni olish, shuningdek noishlab chiqarish xarajatlardan saqlanish va innovatsion jarayonlarni ta'minlash uchun rezervlarni aniqlash uchun imkoniyat yaratadi. Va nixoyat, kompleksli innovatsion dastur o'zining tarkibi va yo'nalishi bo'yicha, boshqa umumkorporativ darajadagi dasturli hujjatlar bilan mos kelishi kerak, bu korxonaning iqtisodiy strategiyasining masalalari va maqsadlarini amalga oshirish uchun kerak bo'ladi.

Korxonaning innovatsion faoliyatini boshqarish mexanizmining mavjud amaliyoti shuni ko'rsatadiki, innovatsion strategiyaning amalga oshirilishi uchun kompleksli dasturni ishlab chiqish jarayoni, bir qator bosqichlarning bo'lishini taqozo etadi. Strategiyani amalga oshirish jarayonida bu bosqichlar ketma-ketligiga e'tibor qaratmaslik, oxir-oqibat innovatsiyalarning boshqarilish mexanizmining buzilishiga olib keladi. Bu dasturning asosiy qismi, oliy rahbariyat qarori bilan tashkiliy-tayyorlov ishlar majmuini olib borishdan iborat. Buning uchun ishlab chiqarish va potentsial (ushbu sohada mavjud muammolar) rivojlanish innovatsion darajasining asosiy xarakteristikalarini aniqlash va baholashni, asosiy innovatsion bo'limga o'tkazish uchun maxsus vazifa shakllantiriladi.

Bu axborot quyidagilar uchun dastur bo'lib xizmat qiladi: dasturni ishlab chiqish; aniqlanayotgan prioritetlardagi ishlab chiqarish rivojlanishi istiqbollarining tahlili, dastur tuzilishini ishlab chiqish uchun tashkiliy-uslubiy bazani yaratish va taklif qilinayotgan loyiҳalar bo'yicha baholovchi ko'rsatkichlar tizimini yaratish va boshqalar. Berilgan dastlabki vazifa bilan parallel ravishda, dastur tadbirlari bajarilishining grafiklari ishlab chiqariladi. Bundan keyingi tayyorlangan hujjatlar oliy rahbariyat tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi, shuningdek boshqa bo'limlar bilan muvofiqlashtiriladi, shuningdek, kerak bo'lsa, dasturga tegishli o'zgarish va qo'shimchalar kiritiladi. Shunday qilib, korxona innovatsion jarayonini barcha ishtirokchilarining manfaatlari real tarzda inobatga olinadi.

Innovatsion faoliyat boshqaruvi tamoyilining nazariy hamda amaliy aspektlari ishlab chiqilgandan so'ng, u rasmiy ravishda bosh innovatsion guruxga

taqdim etiladi. Ushbu tartibda ishlab chiqilgan dasturning oxirgi varianti korxonaning innovatsion rivojlanishining asosiy vazifalarining echimi va bu vazifalarning bajarilishini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi bo'yicha konkret loyiha va tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi bo'limlar muvofiqligidan iborat. Dastur tarkibi va maqsadlari to'g'risida umumiy ma'lumotlarni, dastur boshlang'ich bo'limida ko'rish mumkin. Bunda ob'ektning asosiy muammolari, rivojlanish istiqbollari, bunga erishish yo'llari ifodalangan. Bu bo'lim o'z ichiga barcha bo'limlarning miqdoriy ko'rsatkichlarini, shuningdek resurslar bilan ta'minlanganlik xarakteristikalarini va dasturni amalga oshirish natijalarini oladi. Dasturning boshqa bo'limlari qat'iylashtirilmagan bo'lib, u yoki bu ishlab chiqaruvchining innovatsion strategiyasining aniq vazifa va yo'nalishlarini o'z ichiga olishi mumkin. Bizning fikrimizcha, bu bo'limlar tarkibiy jihatdan quyidagi qismlardan iborat bo'lishi kerak:

- 1) innovatsion salohiyatdan foydalanish va rivojlanish;
- 2) xodimlar kasb mahoratini oshirish, ularni qayta tayyorlash, malakasini oshirish;
- 3) bo'limlarning funktional o'zaro aloqadorligini ta'minlash;
- 4) ishlab chiqarish apparatidan foydalanish samaradorligini oshirish;
- 5) korxona va innovatsion jarayonlar boshqaruvini mukammallashtirish;
- 6) axborot bazasini mukammallashtirish;
- 7) innovatsion faoliyatning ekologik, ijtimoiy xavfsizligi;
- 8) resurslar bilan ta'minlanganlik va moliyaviy manbalar;
- 9) bajaruvchilar birinchi ko'rsatilgan bo'limda fundamental izlanishlar va korxona boshqaruvi innovatsion strategiyasini amalgalash oshirish bo'yicha o'tkazilayotgan loyiha birlashtiriladi. Shuningdek, bu yerda kadrlar, fondlar, mablag'larning loyihalar bo'yicha ratsional taqsimlanish masalalari ko'rib chiqiladi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Буранова М. «Инвестиционные возможности предприятий» .Т. Рынок, деньги и кредит. № 5. 2002 г.
2. Abdusattarova X.M. Innovatsiya strategiyasi. TDIU Toshkent. 2011
3. Ибаргимов и экономическая политика и структура преобразования в Узбекистане. «Центральная Азия и Кавказ», №4 (22), 2002 г.